

## **PARALINGVISTIKA VA NOVERBAL MULOQOT**

Mirzayeva Surayyo Mahmasharif qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti

kafedrasi o'qituvchisi

### **Annotatsiya:**

Maqlada paralingvistik vositalar haqida qisqacha ma'lumot berilgan hamda ularning o'r ganilish darajasi va ahamiyati ochib berilgan. Murojaatda noverbal shakllari ham keng tahlil qilingan. Shuningdek, lingvistik va nolingvistik aloqalar, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir va qarama-qarshiliklar, ma'lum tasvirni yaratish imkoniyatlari muhokama qilingan. Muloqot jarayonida noverbal vositalarning xususiyatlari masalasi ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** noverbal muloqot, noverbal vositalar, noverbal shakl, lingvistik va nolingvistik aloqa, jestlar, imo-ishoralar.

### **Abstract:**

The article provides brief information about paralinguistic tools and reveals their level of study and importance. In the application, non-verbal forms are also extensively analyzed. Linguistic and non-linguistic relations, interactions and contradictions between them, possibilities of creating a certain image were also discussed. The question of the characteristics of non-verbal means in the process of communication is also covered.

**Key words:** non-verbal communication, non-verbal means, non-verbal form, linguistic and non-linguistic communication, gestures, gestures.

Tilshunoslik fanining tadqiqot obyekti bo'lgan til jamiyat mahsuli, jamiyat quroli sifatida o'z ta'rifiga, tavsifiga, mantiqiy izohiga ega. Bu - tabiiy. Chunki ta'riflanishi zarur bo'lgan ushbu ijtimoiy hodisa taraqqiyot mezoni, hayot ko'zgusi sifatida, millat ruhi-yu tarix tarjimonи sifatida jamiyatga xizmat qilib kelmoqda. Demak, jamiyat va til tushunchalari o'zaro ajralmas-dialektik bog'liq bo'lib, ular mantiqan biri ikkinchisini to'ldiradi, biri ikkinchisisiz mavjud bo'lmaydi, biri ikkinchisiga faol xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, jamiyatning mavjudligi tilning mavjudligini, tilning mavjudligi esa jamiyatning mavjudligini talab qiladi. Shunga kura jamiyat tushunchasi qay darajada o'z ta'rifiga ega bo'lsa, til tushunchasi ham shu darajada o'z ta'rifiga, tavsifiga egadir.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Ravshanxo'ja Rasulov "Umumiyy tilshunoslik" Toshkent-2010.B-171

Til kishilar o'rtasida eng muhim aloqa vositasi sifatida ijtimoiy mohiyat kasb etadi. U boshqa ijtimoiy hodisalar bilan ham uzviy aloqador. Shu bois ham til xalqning dunyoqarashi, o'tmishi, madaniyati, ruhiyati kabi masalalarini o'rganuvchi falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, etika kabi bir qator fanlar bilan bog'liq. Bu bog'liqlik natijasida tilshunoslikda bir qator oraliq yo'nalishlar – mentalingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, paralingvistika kabi yangi fan sohalari vujudga keldi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida bu yo'nalishlar bo'yicha talaygina tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Til vositalariga funksional tomondan yondashish tamoyili tabiiy ravishda nutq vositalarining qamrovini kengaytirishni talab qiladi. Aloqa jarayonida ekstralivingvistik vositalarga nisbatan paralingvistik vositalar, ayniqla, keng qo'llanadi. So'zlovchining og'zaki nutqi bilan birgalikda qo'llanib, tinglovchilar bilan bevosita aloqa qilishda nutq mazmunini to'ldiradigan, uning jozibadorligi, ta'sirchanligini oshiradigan imo-ishoralarning o'zaro aloqadorligini va farqlarini tadqiq qilish maqsadida til va nutqni sistemali o'rganish lozim bo'lmoqda. Ana shunday amaliy talab bilan nutqning bu yordamchi vositalarini o'rganuvchi maxsus fan sohasi maydonga keldi. Hozirgi kunda bu fan sohasi "paralingvistika" nomi bilan tilshunoslikdan mustahkam o'rin oldi.

"Paralingvistika" atamasining o'zi fanga 1940-yillarning oxirida kiritilgan. Paralingvistika bu – bevosita nutq faoliyati bilan bog'lik bo'lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqtida yuzaga keluvchi, so'zlashuv nutqining doimiy xamroxi bo'lgan qo'l va yuz harakatlarini (imo-ishora, mimika), nutqning balandligi, ekspressiv-emotsional bo'yoq kabi qator jixatlarni o'rganuvchi sohadir.<sup>2</sup> Paralingvistik vositalarga oid tushunchalar dastlab 1644 yili Angliyada D. Bulverning "Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo'lning tabiiy tili va xronologiyasi" nomli asarida tadqiq qilingan. Uning ilmiy nazariyasi asosida 1650-1670 yillar oralig'ida I. Shlezinger, L. Namir, R. Berdvistel, E. Klim, U. Stokoeva U. Belludji kabi izlanuvchilar va tadqiqotchilarining paralingvistik vositalarga oid ilmiy ishlari dunyoga kelgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa jahon tilshunosligida nutqda verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal vositalarni turli aspektlarda o'rganishga e'tibor kuchaygan. Jumladan, F. Poyatos, G. Treyger, D. Shifrin, I. Yildirim, D. Eryilmaz, Sh. Ruxi, G. Kolshanskiy, T. Nikolaeva, A. Reformatskiy, G. Kreydlin, T. Vlasova, A. Plaxotnikov, E. Borisova, R. Yakobson, A. Nurmonov, A. Sobirov, M. Saidxonovlar lingvistikaga oid; N. Gunduz, F. Serdjant, D. Abduazizovalar ijtimoiy lingvistikaga oid; Safarov pragmalingvistikaga oid; I. Gorelov psixolingvistika fanlari bilan bog'liq holda tadqiqot ishlarini olib borgan. Xususan, L.S. Vigotskiy nutq san'atini egallashning boshlang'ich bosqichida imo-ishora va tilning murakkab aralashib ketishini ibtidoiy odamlarda imo-ishoralarni tasvirlovchi hamda ifodalovchi juda ko'p so'zlarning mavjudligi bilan izohlaydi. Ibtidoiy odamning tili, aslini olganda, ikki xil tildir: birinchi tomondan, so'z tili, ikkinchi tomondan, imo-ishora tili. Ibtidoiy odamlar tili predmet obrazlarini ifodalaydi, bu obrazlarni

<sup>2</sup> Ravshanxo'ja Rasulov "Umumiyl tilshunoslik" Toshkent-2010.B-166

ular o‘z ko‘zi va qulog‘i bilan qanday tasavvur etsa, shunday ifodalaganlar. Har bir jumla murakkab shaklda bo‘lib, unda imo-ishora, tovushlar birlashgan<sup>3</sup>. Ammo mazkur fikrlarga asoslanib, kommunikatsiyada noverbal vositalar verbal vositalarga nisbatan oldinroq qo‘llanilgan, deb bo‘lmaydi. Noverbal vositalar hamma vaqt tovush tiliga ega bo‘lgan kishilar uchun ikkinchi darajali vazifa bajaradi. Bu vositalar ko‘rsatish, ekspressiv xarakterda bo‘lishi mumkin, ammo o‘zicha tushunchalarni nomlay va ifodalay olmaydi. Faqat shunday funksiyaga ega bo‘lgan so‘z tilini kuzatib boradi<sup>4</sup>. Haqiqatan ham, tarix tovush tiliga ega bo‘lmagan birorta ham kishilik jamiyatining bo‘lganini bilmaydi. Tovush tili insoniyat tarixida kishilarning hayvonot dunyosidan ajralib chiqishiga, jamiyat bo‘lib birlashishiga, o‘z tafakkurini takomillashtirishiga, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishiga, tabiat kuchlari bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishiga va shu tariqa hozirgi zamon taraqqiyot darajasiga yetishiga yordam bergen kuchlardan biridir. Noverbal vositalar esa doimo nutq bilan birgalikda qo‘llanib, unga yordam beruvchi ikkinchi darajali vosita bo‘lib kelgan. Chunki fikr o‘zining ma’lum moddiy asosiga (qiyofasiga) ega bo‘lishi kerak. Ana shu moddiy asos (qiyofa) nutqdir. Nutq faqat fikr ifodalovchi vositagina emas, balki fikrni shakllantiruvchi vosita hamdir<sup>5</sup>. Muloqot ko‘p hollarda verbal, ya’ni so‘z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so‘zsiz-noverbal (imo-ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvollar) vosita orqali axborot berish bilan bog‘liq bo‘lib, bir-biriga ta’siriga ko‘ra, verbal va noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi. Ixtiyoriy va ixtiyoriy bo‘lmagan noverbal ko‘rinishlar dastlab mudofaa (rad etish), hujum (qabul qilish, o‘zlashtirish), diqqatni jamlash (kutish, marosimlar va o‘tish holatlari) va inson madaniy evolyutsiyasining preverbal davridagi maqsadga muvofiq reaksiya edi. Artikulyar nutq paydo bo‘lgandan so‘ng odamlar muloqot bilan bir qatorda og‘zaki bo‘lmagan muloqot vositalaridan ham yarim ongli ifoda vositasi sifatida foydalanishgan. Noverbal aloqa usullari ikkita kelib chiqish manbasiga ega ekanligi ilmiy jihatdan aniqlagan: biologik evolyutsiya va madaniyat. Madaniyatlararo muloqot jarayonida paralingvistik vositalarning o‘rnii juda muhim. Ma’lum bir tilda to‘liq kommunikativ aloqaga kirishish paralingvistik tamoyillarni ham qoniqarli darajada bilishni talab qiladi. Paralingvistika sohasi ekstralolingvistika, paralingvistika, noverbal vosita kabi nomlar bilan atab kelindi. Biroq keyingi davrlarda ekstralolingvistika va paralingvistika bir-biridan ajratilmoqda. O.S.Axmanovaning yozishicha, tilshunoslik bu “predlingvistika”, “mikrolingvistika” va “metalingvistika”ga bo‘linadigan “makrolingvistika”dir. “Predlingvistika” til ifodasining fizik tabiatini bilan shug‘ullanadi. “Metalingvistika” til va tafakkur, til va jamiyat (madaniyat)ning turli aloqalarini tekshiradi. “Mikrolingvistika” intralingvistika hisoblanadi, u tilga ichki tomondan yondashadi. “Predlingvistika” va “metalingvistika”ni bir umumiyl nom – “ekstralolingvistika” ostida

<sup>3</sup> Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Samarkand, 1993. – B.105.

<sup>4</sup> Виготский Л.С., Лурия А.Р. Этюды по истории поведения. – Москва, 1993. – С.93-95.

<sup>5</sup> Toirova G. O‘zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2017. – B.42.

birlashtirish mumkin. Paralingvistika esa kommunikatsiya uchun xizmat qiladigan nutqning yordamchi vositalarini o‘rganadi<sup>6</sup>. “Paralingvistika” atamasi yunoncha “para” –“haqida” va “lingvistika” – tilshunoslik so‘zlaridan kelib chiqqan. Paralingvistika tilshunoslikning noverbal (nolingvistik) vositalarini, shu jumladan, nutq aloqasi va uzatishni og‘zaki vositalar, semantik ma’lumotlar bilan birga o‘rganadigan bo‘limidir. Bundan tashqari, paralingvistika tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida nutq aloqalarida ishtirok etadigan noverbal vositalar majmuini anglatadi. Paralingvistik vositalar – yozma tilda qo‘llaniladigan vositalar (undov belgisi, ellips, undov va so‘roq belgilarining birikmali, chizmalar, grafikalar, grafik matnni segmentlarga ajratish va uni qog‘ozga joylashtirish, shrift va ranglar to‘plami, noodatiy imlo). Paralingvistika tarkibida universal, etnolingvistika va idiolekt komponentlar mavjud. Demak, paralingvistik vositalar og‘zaki xabarning ma’nosini to‘ldiribgina qolmay, balki so‘zlovchi (yozuvchi), uning ijtimoiy va yosh xususiyatlari, jinsi, xarakter xususiyatlari va hokazolar haqida ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Muloqot dinamikasi uning muhiti ishtirokchilari tarkibi, shakl va mazmun o‘zgarishlarida namoyon bo‘ladi. Hayot taraqqiyoti muloqot doirasining kengayishi, uning yangi turlari hosil bo‘lishini taqozo qiladi. Muloqot ijtimoiy harakterda bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib, mazmunan boyib ma’lum “qolip”larda o‘zlashtirilib boriladi. Muloqot shakli–madaniy hodisa va shu sababli turli madaniy guruhlarda (xalq, etnos, qabila va kichik ijtimoiy guruhlarda) turlicha udumlar, an’anaviy ritual qoidalari mavjud. Guruhlarda qo‘llanishda bo‘lgan muloqot shakli ularning ishtirokchilari yagona jamoa sifatida birikishini ta’minalash natijasida, guruhlarni o‘zaro farqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yana shuni qayd qilish lozimki, muloqot shakllarining sifat va son farqari turli madaniyat va sotsiumlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan muloqot ehtiyojini ta’minalashni qiyinlashtiradi. Bunday ehtiyojni qondirish uchun odatda, tarjimonlar ko‘magiga murojaat qilish, umumiylar ramziy belgilar sun’iy kod kabi vositalarga murojat qilish kerak bo‘ladi<sup>7</sup>

## **TURLI MADANIYATLARDAGI TANA TILLARI**

Tana harakatlari- qo‘l va tana harakatlari kundalik hayotda so‘zlar kabi samarali. Ba’zan biz bitta tana harakati bilan ko‘p narsalarni ayta olamiz. Tana harakatlari mamlakatdan mamlakatga va madaniyatdan madaniyatga farq qilishi mumkin. O‘z mamlakatingizdagi tana harakatlari, imo-ishoralar boshqa mamlakatda boshqacha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Keling, ba’zi tana harakatlarining qaysi madaniyatda nimani anglatishini ko‘rib chiqaylik. Ko‘z bilan aloqa qilish - bu tana harakatining eng keng tarqalgan belgisi. Shimoliy Afrika va Amerikada ko‘z bilan aloqa qilish o‘ziga bo‘lgan ishonchni bildirsa, Yaponiya, Koreya va Tailand kabi mamlakatlarda uzoq vaqt ko‘z bilan aloqa qilish hurmatsizlikdan dalolat

<sup>6</sup> Nurmonov.A. Tanlangan asarlar III jildlik .I jild . T.2012.- B.215.

<sup>7</sup> L. Ravshanova. Muloqot tizimining tarkibi va umumiylar belgilari. Muloqot shakllari va xorijiy tillarga o‘rgatish.Samarqand, 2002, 81-82.

beradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki o'zbek xalqi madaniyatida ham O'zidan katta insonlarni ko'ziga qarab gapirish hurmatsizlikni bildiradi.

Ko'rsatkich va o'rta barmoqlarni ko'tarish ya'ni "V" harfiga o'xshash belgi qilish ko'pchilik madaniyatlarda g'alabani anglatadi. Bu belgi Ikkinchi jahon urushi davrida g'alaba belgisini bildirgan bo'lsa, odamlar bu belgidan 1960-yillardan buyon tinchlik ma'nosida foydalanib keladi. Ammo Avstraliyada bu belgi "bor va bu yerdan ket" degan ma'noni anglatadi. Bosh barmog'ingizni yuqoriga ko'tarish,

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida bu "hammasi yaxshi" degan ma'noni anglatadi. Italiyada bu imo-ishora "ajoyib" degan ma'noni anglatadi. Afg'oniston va Eron kabi ba'zi mamlakatlarda shunday qilsangiz, bu katta hurmatsizlik belgisidir. Qo'l signallari singari, tana tili ham turli madaniyatlarda turli xil ma'nolarga ega. Misol uchun, turklar va yunonlar boshlarini orqaga tashlab, iyagini ko'tarib "ts" deyishadi, bu harakat "yo'q" degan ma'noni anglatadi va buni juda kam odam tushunadi.

Yana bir misol, Turkiyada va boshqa ko'plab mamlakatlarda boshni yuqoriga va pastga silkitish "ha", chapga va o'ngga silkitish "yo'q" degan ma'noni anglatadi. Agar siz ushbu bosh harakatlarini Afrikaning ba'zi qismlarida qilsangiz, bu teskarisini anglatadi. Bu hududlarda boshni yuqoriga va pastga silkitish "yo'q" degan ma'noni anglatadi. Ikki yonga silkitish esa "ha" degan ma'noni anglatadi. Salomlashish madaniyati turli mmalakatlarda turlichadir. Masalan: Oqdengiz taraflardagi o'lkalardagi xalqlar salomlashayotganda quchoqlash va o'pishni yaxshi ko'radilar. Firansuzlar salomlasharkan uch kara o'pish odati bor. Filippinda esa ko'zlarini tez-tez ochib-yumish salomlashish uchun yetarli hisoblanadi. Yaponiyada esa bu tubdan farq qiladi ya'ni ular salomlashish uchun bir-birlariga umuman teginmay yaqinlashib egilgan holda hurmat ko'rsatishadi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, paralingvistik vositalar fikr ifodalashda eng sodda, eng tejamli vositalardan hisoblanadi, shuningdek, ekspressivlikni ta'minlashga ham yordam beradi. O'zbek tilshunosligida nutqning noverbal vositalar bilan ifodalanishi birmuncha mukammal ishlangan, biroq virtual muloqotdagi noverbal vositalarning lisoniy va madaniy jihatlari hali tadqiq etilmagan. Paralingvistik vositalar ma'lum bir xabar tashishda lingvistik vositalarga yordam beradi, ba'zi o'rinlarda hatto lingvistik vositalar vazifasini ham bajaradi. Demak, muayyan bir tilni o'rganayotganda faqat shu til strukturasini (leksika, fonetika, grammatikani) o'rganishning o'zi yetarli emas. Paralingvistik vositalarni o'rganish madaniy aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yishga, xalqlarning o'zaro bir-birlarini yaxshi tushunishiga, tarjima ishlarining sifatini ko'tarishga, kishilarning dunyo xalqlari urf-odatlari, hayotiy tajribalarini atroflicha bilishga, inson madaniy saviyasining ko'tarilishi, xalqlar haqidagi tasavvurlarning kengayishi, tilshunoslikning boshqa fanlar orasidagi o'rnini, qimmatini oshirishga yordam beradi.

**Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Samarkand, 1993. – B.105.
2. L. Ravshanova. Muloqot tizimining tarkibi va umumiy belgilari. Muloqot shakllari va xorijiy tillarga o'rgatish. Samarqand, 2002, 81-82.
3. Nurmonov.A. Tanlangan asarlar III jildlik .I jild . T.2012.- B.215.
4. Ravshanxo`ja Rasulov "Umumiy tilshunoslik" Toshkent-2010.B-171
5. Ravshanxo`ja Rasulov "Umumiy tilshunoslik" Toshkent-2010.B-166
6. Toirova G. O'zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2017. – B.42.
7. Виготский Л.С., Лурия А.Р. Этуиды по истории поведения. – Москва, 1993. – С.93-95.